

**UMURTQASIZ HAYVONLAR
SIPUNKULALAR (SPUNCULA) VA EXIURALAR (ECHIURA)
TIPLARI.**

ULARNING YASHASH TARZI VA RIVOJLANISHI

**NOSIROVA RUXSHONA ZAFARJON QIZI
URAYIMJONOVA DILBARXON ILHOMJON QIZI
QO'LDOSHEVA KARIMAXON BAXTIYORJON QIZI
ODILOVA ZUHRAKON XOJIQURBON QIZI**

Andijon Davlat Pedagogika Insituti Tabiiy Fanlar Fakulteti Bialogiya
yo'nalishi

1-bosqich 102-guruh talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada Exiuralar va Sipunkulalar tiplariga kiruvchi umurtqasiz hayvonlar haqida ma'lumot keltirilgan. Exiuralar va Sipunkulalarning aniq sistematik o'rni ma'lum emas. Exiuralarning 150 ga, Spinkulalarning 250 ga yaqin turi ma'lum.

Kalit so'zlar: Exiura, sipunkulalar, troxofora, metamer, yeryong'oq qurtlar, bonelliya, xartum, pelagosfora, mollyuska.

Аннотация: В этой статье представлена информация о беспозвочных, принадлежащих к типам Exiura и Sipuncula. Точное систематическое Положение Exiura и Sipuncula неизвестно. Известно около 150 видов Exiura и 250 видов sipuncula.

Ключевые слова: Exiura, сипункула, трохофора, метамер, архисовые черви, бонеллим, хазтум, пелагоспора, моллюск.

Abstract: This article provides information on invertebrates belonging to the Phyla Exiura and Sipuncula. The exact systematic position of exiura and sipuncula is not known. About 150 species of exiura and 250 species of sipuncula are known.

Key words: Exiura, sipuncula, trochophora, metamer, peanut worms, bonellia, Khartoum, pelahgosphora, mollusk

Exiuralarning aniq bir sistematik o'rni ma'lum emas. Ko'pchilik olimlar ularni halqali chuvalchaglarga yaqin hayvonlar deyishadi. Asosan hayotini dengiz tubida loyga ko'milib o'tkazadi. Ular halqali chuvalchaglardan farq qilib, tanasi va selomi ajralmagan. Ularning asosan 150 ga yaqin turi ma'lum. Sipunculalar sistematik o'rni exiuralar singari aniq emas. Ularning 250ga yaqin turi ma'lum ushbu hayvonlar asosan dengizlarda suv tubidagi loyni kovlab yoki bo'sh naychalarda va chig'anoqlarda yashaydi. Sipunculalarni ba'zan "Yeryong'oq qurtlari" deb ham atashadi, chunki ba'zi turlarning qisqargan, qalin tanasi qobig'i yeryong'oqqa o'xshaydi. Exiuralarning 20-30 sm gacha kattalikdagi qopchiqsimon tansi hamma vaqt deyarli qum yoki balchiqli dengiz tubida maxsus "Joy"ga botgan holda joylashib ko'pincha kam harakat bo'ladi. Tananing bosh tomonidagi uzun "Xartum" o'simtasi esa juda harakatchan, bu exiuraning oziq oluvchi va nafas oluvchi organidir. Exiuralar ayrim jinsli hayvonlar, jinsiy dimorfizm keskin rivojlangan bonel-Liyaning urg'ochisi yirik, erkagi juda mayda bo'lib, urg'ochisining nefridiyarlari bo'shlig'ida yashaydi. Ular ustida olib borilgan kuztishlar shuni ko'rsatadiki, lichinkalar yashash sharoiti ularning jinsi rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Lichinkalar alohida boqilsa, faqat urg'ochi bonelliya, agar lichinkalar voyaga yetgan urg'ochisi solingan idishda parazit erkak bonelliyalar rivojlanadi. Sipunculalar vakillari gavdasi uzunligi 2mm dan 70 sm gacha boradi. Suv tubida yashovchi dengiz hayvonlaridir. Bir qancha turlari qumda, ba'zi turlari marjon qoyalari kovaklarida, mollyuskalar chig'anogida (bo'shagan), 1ta turi yog'ochni parmalab o'yib yashaydi. Sipunculalar ayrim jinsli hayvonlar hisoblanadi. Ularning tuximdan troxofora lichinkasi chiqadi. Lichinkasi metamorfizni o'tab rivojlanadi. Pelagosfora – Lichinkasi plankton organizmlar bilan oziqlanib, uzoq rivojlanadi. Sipunculalar filogenezi tortishuvini muammobo'lib kelmoqda. Ularni lichinkasi rivojlanishi hamda ular bulan yonma – yon uchta takson ayrim tipik belgilari ham mazkur taksonda nomoyon bo'ladi. Shuning uchun ayrim sistematikalar bularni halqali chuvalchaglardan kelib chiqqan desa, boshqa tadqiqotchilar mollyuskalardan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi. Uchunchi guruh mutaxassislar bularni ninatanlilar avlodi ekanligini aytadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1."Umurtqasizlar zoologiyasi" O.Mavlonov,SH.Xurramov,X.Eshonova .
- 2."Umurtqasizlar zoologiyasi"Edvard E. Ruppert,Richard S Foks, Robert D.Barns
- 3."Umurtqasizlar zoologiyasi "V.F.Natali .